

YURIDIK TA'LIMDA – TA'LIM UZVIYLIK.

Sobirov Mirzohid Roziqovich

Navoiy viloyati yuridik texnikumi Umum ta'lim fanlar kafedrası mudiri, 3-darajali yurist.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi a'lochisi.

+998 90 731 20 72. mirzohidsobirov575@gmail.com

Xolmurodov Bunyod Bekmurod o'g'li

Navoiy viloyati yuridik texnikumi huquqshunos o'qituvchi, 3-darajali yurist.

+99893 310 46 65.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11277045>

***Annotatsiya.** Pirovard maqsadda yuridik fanni hamda huquqiy ta'limni yangi formatga olib chiqiqish, jamiyatda huquqiy madaniyatni takomillashtirgan holda qonun ustuvorligiga erishish kabi ezgu amallar mujassamdir. Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi. Yuridik ta'limda uzviylik.*

***Kalit so'zlar:** huquqiy e'tiqod, yuridik fan, yuridik ta'lim, huquqiy idealizm, ta'lim klasterlari, farmon, maktab, ta'lim turlari,*

IN LEGAL EDUCATION - EDUCATION IS INTEGRITY.

***Abstract.** The ultimate goal is to bring legal science and legal education to a new format, to achieve the rule of law by improving the legal culture in society. New Uzbekistan starts at the school threshold, at the education system.*

***Keywords:** legal belief, legal science, legal education, legal idealism, educational clusters, decree, school, types of education.*

В ЮРИДИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ – ОБРАЗОВАНИЕ ЭТО ЧЕСТНОСТЬ.

***Аннотация.** Конечная цель – вывести юридическую науку и юридическое образование в новый формат, добиться верховенства права за счет повышения правовой культуры в обществе. Новый Узбекистан начинается с порога школы, с системы образования.*

***Ключевые слова:** правовые убеждения, юридическая наука, юридическое образование, правовой идеализм, образовательные кластеры, декрет, школа, виды образования.*

Yangi O'zbekistonda barcha sohalar kabi yuridik ta'limda ko'plab islohotlar amalga oshirib borilmoqdagi bundan pirovard maqsad yuridik fanni hamda huquqiy ta'limni yangi formatga olib chiqiqish, jamiyatda huquqiy madaniyatni takomillashtirgan holda qonun ustuvorligiga erishish kabi ezgu amallar mujassamdir.

2020 – yil 29 - dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlar xususida fikr bildirib, “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrleydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.” – deb ta'kidladilar. Mazkur ta'kidlov zamirida ta'lim tizimi, ayniqsa yuridik ta'lim muhimdir.

Ijtimoiy hayotimizda globallashtirish, axborot-texnik vositalari taraqqiyoti negizida jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan,

tashqivot-targ'ibotning zamonaviy va ta'sirchan vositalaridan, jahon tamaddudining bu sohadagi tajribalaridan amalda qo'llagan holda milliy yuridik ta'limni yanada uyg'unlashtirish davr taqozasidir.

Yuridik ta'limda uzviylikni ta'minlash bu sohadagi ishlarimizda qat'iy tizimlilikka erishish mexanizmini yaratish sohada mavjud muammolarimiz yechimida muhim qadam hisoblanadi.

Yuridik ta'lim qamrovi faqat oliy ta'lim va yidik fandanda iboratgina emas. Bu ta'lim tizimi o'zida qamroviga maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda professional ta'lim turlarini¹ ham qo'shib o'tish mumkin. Zero, ta'limning barcha turlarida ta'lim standartlari ishlab chiqib, ularni o'quv rejalariga muvofiqlashtirib tizimlashtirsak-gina, hozirgi zamon tili bilan aytganda huquqiy ta'lim sohasida o'ziga xos ta'lim klasteriga ega bo'lamiz. Ta'lim klasterlari deganda huquqiy ta'lim sohasida eng avvalo huquqiy e'tiqod, huquqiy tarbiya hamda huquqiy ta'limni amaliyot bilan uyg'unlikda olib boradigan uzluksiz ta'lim jarayonini nazarda tutadi.

Huquqiy ta'lim sohasida bevosita faoliyat yuritayotgan pedagog sifatida ko'p yillik kuzatishlarim zamirida shuni alohida ta'kidlash mumkin-ki, yuridik talim va yuridik fanga hozirki kunda davlat siyosati darajasida e'tirof berilayotganidan ma'lumdir.

Soha rivojiga oid qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar, chunonchi **“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YURIDIK TA'LIM VA FANNI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'IRISIDA”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni² huquqiy asos hisoblanadi. Huquqiy ta'lim sohasida qilinishi lozim bo'lgan ishlalar ,vazifalar mazkur hujjatda o'z ifodasini topgan.

Huquqiy ta'lim uzviylik qamrovida, ma'nan etuk, bilimli, dunyoqarashi keng, odillikni ustuvor bilanidan hozirgi zamonaviy huquqshunos kasbiga munosib kopetensiyali yuristlarni yangi avlodini tarbiyalashdek muhim vazifalar turibdi. Huquqiy ta'limda uzviylikni umumiy o'rta ta'lim maktablarning 7-sinflaridan boshlashni taklif etaman. Unda o'quvchilarga “Huquqqa kirish” kurslarini olib borishni quyidagi xususiyatlarni inobatga olgan holda olib borishni taklif etaman:

Birinchiidan, 7-sinflarda umumtalim maktablarida o'qitilayotgan “Tarbiya” darsliklarida alohida bo'lim sifatida mazkur fan soatlari doirasida tashkil etishni. Bunda tarbiya, ya'ni ahloq bu huquq bilan jamiyatda bir yonalishda harakatlanishi hamda aholq bilan tarbiya uyg'unligi muhimligi bilan izohlanadi.

Ikkinchida, ayrim fanlardan chuquqlashtirib o'qitiladigan maktablarda huquq sinflarini tashkil etish orqali 7-sinfdan boshlab o'z oldiga kelajakda huquqshunos bo'lishni maqsad qilib qo'yga huquqshunoslarning yangi avlodidini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

“Huquqqa kirish” o'quv kurslarining maqsadi huquqiy e'tiqodni ya'ni huquqshunoslar tili bilan aytganda huquqiy idealizmni shakllantirishdir. Bu kabi huquqiy kurslar joriy etish xulosasi

¹ O'zbekiston Respublikasining “ Ta'lim to'g'risida qonuni”:. Toshkent sh.,2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son .Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son

² “O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-5987 29.04.2020. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son

Makoto Itoning “Huquq faniga kirish” (The Guide to study Law) o’quv qo’lanmasini³ o’qish asnosida shunday xulosaga keldim. Mazkur o’quv dasturini aynan emas balki millatimizga xos mintaletimiz ajoyib qadriyatlarimizni o’zida mujasamlashtirgan holada o’quvchi yoshlarning ruhiy emmosional qarashlarini inobatga olgan tazrda tajribali pedagoglarimiz , psixologlarimiz tomonidan ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etilsa zarur bilim va ko’nikmalarga ega mutaxasislar tayyorlashning dastlabki bosqichi hisoblanardi.

Uchinchdan, huquqiy ta’limning muvaqqiyatini darsliklarsiz ayniqsa maktab darsliklarsiz tasavvur qilish qiyindir. Maktab darsliklari bilan fan olimpiadalari davomida ko’p bora ishlashga to’g’ri kelganligi bois mazkrur darsliklarda ko’plab xatoliliklar mavjud-ki ularni bartaraf etmasdan turib yuridik ta’lim sifatini oshirish haqida gap bo’lishi mumkin emasdir. Hozirgi kunda maktab darsliklarida kamchiliklar quyidagilardan iboratdir:

- Maktab darsliklarida huquqiy ma’lumotlar umumiy statistika ma’lumotlaridan iborat bo’lib, o’quvchilar yosh xususiyati inobatga olinmagan;

- Qonun normalari bilan uyg’unlik to’liq erishilmagan bo’lib, ma’lumotlar yangi tahrirda qabul qilingan huquq normalarini bilan tuzatilmagan yoki to’ldirilmagan;

- Mavzularning amaliyot bilan bog’liqligi , amaliy topshiriqlar kundalik hayotiy vaziyatlar bilan boyitib o’quvchilarning fanga nisbatan qiziqtirshga erishilmagandir;

- Yuqori sinflarda mavzular asosan o’quvchilani mulohaza- muhohada undovchi topshiriqlar hamda ma’lumotlar bilan to’ldirilishi lozim. O’quvchi mavzuni o’rganish bilan barobarda amalda uni qo’llash malaksiga ega bo’lib borsa bilim- ko’nikma – malaka mutanosibligiga erishgan holda fanga nisbatan o’quvchining qiziqishi yanada oshishiga erishilgan bo’lardi.

Maktab o’quvchilarining huquqiy madaniyat oshirish masalasi bir qator omillar bilan chambarchas bog’liqligi bilan izohlanadi. Chumonchi bugunning maktab o’quvchisi ijtimoiy faollashib borayotgan shaxs ertangi kun jamiyatining harakatlantiruvchi kuchi shu millat davlatning a’zosidir. Uning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatning nishonasidir.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasining “ Ta’lim to’g’risida qonuni”:. Toshkent sh.,2020-yil 23-sentabr, O’RQ-637-son .Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son
2. “O’zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-5987 29.04.2020. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son
3. Huquq faniga kirish.(The Guide to study Law by Makoto Itoh) O’quv qo’llanma./ Makoto Ito, A.M.Xakimov., A.I.Umirdinov tarjimai-Toshkent:.Lesson Press nashriyoti, 2019 yil.

³ Huquq faniga kirish.(The Guide to study Law by Makoto Itoh) O’quv qo’llanma./ Makoto Ito, A.M.Xakimov., A.I.Umirdinov tarjimai-Toshkent:.Lesson Press nashriyoti, 2019 yil.